

“Yorqin payshanba” yana va yana

2023 2 Avgust

Shu hafta Uzbekistan Airways Toshkentdan Dubay, Sharja, Blagoveshchensk, Omsk va ortga, shuningdek, Namangandan Omskga va ortga qaytuvchi yoʻnalishdagi barcha aviaqatnovlar uchun tariflarga 20% chegirma eʼlon qiladi.

Chegirma faqat bir kun, 3-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha boʻlib ushbu aksiyada koʻrsatilgan barcha reyslarga amal qiladi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 3-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yigʻimlarga nisbatan qoʻllanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 03.08.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qoʻllanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (yaʼni chegirma qoʻllanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qoʻllanilgan tarif qoidalarini bilan belgilanadi, aviachiptalarni eʼlon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Dubay, Sharja, Blagoveshchensk, Omsk va ortga, shuningdek, Namangandan Omskga va orqaga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.